

CHET TILLARINI O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Umarova Mehriniso

*Samarqand davlat chet tillari instituti Narpay
xorijiy tillar fakulteti 2203 guruh talabasi*

Sadinov Maruf

Ilmiy ish rahbari

Annotatsiya: *Ushbu maqola chet tillarini o'rganish va o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan o'rinli foydalanish va o'qituvchining o'z ustida izlanishlar olib borishi ,yangicha yondashuvlardan foydalanib ,darslarga yangiliklar kiritishi ,darslarning qiziqarli va maroqli bo'lishini ta'minlashi ,interektiv metodlardan foydalanish ,televideniya va ko'rsatuvlar orqali bolani qiziqtirish haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion texnologiya , Axborotkamunikatsiyasi , zamonaviy texnologiya , zamonaviy tarbiyalash , interektiv metodlar , pedagogik maxorat ,televizion dasturlar.*

USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Abstract: *This article is about the appropriate use of modern technologies in learning and teaching foreign languages and the teacher should conduct research on himself ,use new approaches ,introduce innovations into lessons ,make the lessons interesting and enjoyable ,interactive that is explained about the use of methods , the interest of children through the television and also shows.*

Key words: *Innovative technology , communication of information , modern technology ,modern education , interactive methods , pedagogical skills , television programms .*

Абстрактный: *В данной статье речь идет о правильном использовании современных технологий в изучении и преподавании иностранных языков , а учитель должен проводить исследования над собой , использовать новые подходы, вводить инновации в уроки , интересными и приятными интерактивными . Использование методов ,интерес ребенка посредством телевидения и шоу.*

Ключевые слова: *Инновационные технологии , информационные коммуникации , современные технологии, современное образование ,интерактивные методы , педагогическое мастерство , телевизионные программы .*

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu

vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarning faqat tayyor bilimlarini egallashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratib beradi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo' naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy shaklga aylanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda chet tillarini o'rganishda juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi o'nib o'sib kelayotgan yoshlarni ingliz tili va boshqa chet tillarini o'rganishi muhim kasb etadi, shuning uchun zamonaviy texnologiyalar va metodlar ustida ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Bu albatta chet tillarini o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. Texnologiyalardan foydalanib, o'qitishning bir qancha o'ziga xos afzalliklari mavjud. Bundan tashqari, u o'qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o'z navbatida til o'rganayotgan o'quvchini zamon bilan hamnafas bo'lib olg'a intilishiga undaydi. Zamonaviy texnologiyalar asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'rnini egallab olmoqda. Shunday qilib bugungi kundan televizor dasturlaridan bir qancha ingliz tilini o'rgatishda yordam beruvchi yangi dasturlar va ko'rsatuvlar, shovlar muntazam ravishda uzatilib kelinmoqda. O'zbekistonda ham chet elning yangicha innavatsion metodlari, yangicha o'qitish usullari kirib kelmoqda. Innavatsiya - (inglizcha innavatsion) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innavatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlaridan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib mazmuni tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- O'quvchi - talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi ;

- ta'lim mazmunini mukammal o'zlashtirishga olib kelishi ;
- teskari aloqalarning ta'minlanishi ;
- bilimlarini amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratishi ;
- turli xil faol ta'lim metodlarining qo'llanilishi ;
- motivatsiya yuqori darajada bo'lishi ;
- o'z o'zini baholash qobiliyatini shakllantirishi;

Shunday qilib ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innavatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o'z xissamizni qo'shamiz

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hozirgi rivojlanayotgan asrda 7 yoshdan 70 yoshgacha har bir inson til o'rganishga va o'rgangan bilimlarini boshqalarga ulashishga harakat qilishmoqda. Jalilov. J ning chet tillarini o'rganish asarlarida yozuvchi tilni chuqur o'rganish metodlarini bayon etilgan va o'qituvchilarga kelgusida mukammal til o'rganish vositasi sifatida bilim va ko'nikmalar hosil qilish berib borilgan. Tillarni qulay oson va zamonaviy o'qitish metodlari haqida fikr yuritilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Zaripov. R. O'zbek maktablarida chet tilini o'qitish metodikasining asosiy yo'nalishlari, o'qituvchi - 1979y
2. Jalilov. J -CHet tili o'qitish metodikasi, Toshkent 2012y
- 3.Absamadova. Munira Isroilovna - преподаватель , Самаркандский государственных языков , Узбекистан.
- 4 .Djalilov D.D. - Методической разработка для групповых руководителей 1977.